QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181302, Shahrisabz shahri, Fusunkor ko‘chasi 86-uy, tel/faks: 75-522-02-25

2022 - yil 8 - iyul 165-4-67-Q/22 Shahrisabz tuman hokimligi

Shahrisabz tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 27 sentabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 sentabrdagi PF–6075-son Farmonida qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Shahrisabz tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Axborot xizmati (B.Xalimov) mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimning o‘rinbosari A.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz tuman hokimi **S.A.Xasanov**

Shahrisabz tuman hokimining
2022 yil 8 iyuldagi
165-4-67-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Shahrisabz tuman hokimining «2021 yilda tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko’rikdan o’tkazish to’g’risida»gi 2021 yil 12 fevraldagi HQ-48/02-son qarori.

2. Shahrisabz tuman hokimining “**Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 2021 yil 17 iyuldagi 158-4-67-Q/21-son qarori.

3. Shahrisabz tuman hokimining “**Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 2022 yil 18 iyuldagi 119-4-67-Q/22-son qarori.